

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.K.Kurbaniyazova	
Milliy mentalitetning tilda namoyon bo'lishi	106
Sh.D.Shodmonova	
Jamoat xavfsizligini ta'minlash, unga qarshi tahdidlarni oldini olishning ijtimoiy zarurati	110
A.I.Samijonov	
"Xavfsizlik" va "Kiberxavfsizlik" atamasining mazmun-mohiyati va jamiyat hayotida xavflilik darajasini baholanishi	114
N.X.Djalalova	
Yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalardan foydalanish metodologiyasi	119
I.Z.Nazarova	
Yangi O'zbekistonda milliy san'at taraqqiyotining istiqbollari	123

ТАРИХ

A.B.Musayev	
Qo'qon xonligining tashkil topishi arafasida Farg'ona vodiysi	129
Ф.А.Эгамбердиев	
Некоторые вопросы использования института жалоб как способ защиты прав участников на досудебной стадии уголовного процесса	133
M.M.Xolmatov	
O'zbekistonda kollektivlashtirish asosida agrar sohaning isloh qilinishi va uning oqibatlari.....	138
N.R.Israilov	
Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati Lui Le Rua talqinida.....	144
O.B.Nizomiddinov	
Farg'ona vodiysida 1920-1930 yillarda ta'lim tizimining rivojlanishi: birinchi oliy ta'lim muassasaning tashkil etilishi	149

ADABIYOTSHUNOSLIK

Q.V.Yo'lichiyev	
O'zbek she'riyatida anor obrazining tadriji takomili	156
A.Badalova	
The effect of war to the inner world of characters in leo tolstoy's novel "War and peace"	161
S.F.Yuldasheva	
Xalq qissalarida Hazrati Xizr Alayhissalom obrazi	166
D.I.Nazarova	
Hozirgi aruziy she'rlarning qofiya tuzilishi	170
S.A.Xodjayev, O.Y.Sobirjonova	
Epik asar syujetida uchrashuv Motivining o'rni (L.Tolstoyning "Baldan so'ng" hikoyasi misolida).....	175
M.R.Oxunova	
Sharlotta Bronte "Jeyn Eyr" romanida xarakter tasviri	178
L.Hasanova	
Aesthetics of the literary direction romanticism	182
Q.V.Yo'lichiyev	
Abdulla sher sonetlari tahlili	186
Z.F.Shukurova	
"Tarixi Rashidiy" asarining hozirgi o'zbek adabiy tiliga tabdil talqini	192

TILSHUNOSLIK

D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova	
Metaforalarning poetik matndagi o'rni (Siddiq Mo'min ijodi misolida).....	195
Z.V.Alimova	
Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi "Zar" va "Zarra" asoslari bilan bog'liq leksemalar xususida	198



UO'K: 891.709

XALQ QISSALARIDA HAZRATI XIZR ALAYHISALOM OBRAZI**ОБРАЗ ХАЗРата ХИЗРА АЛАЙХИССАЛАМА
В НАРОДНЫХ ПОВЕСТЯХ****THE IMAGE OF HAZRAT KHIZR ALAYH SALAAM IN THE FOLK STORIES****Yuldasheva Saodat Azizovna** 

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya

Mazkur maqolada “Qissai Ibrohim Adham”, “Qissai Sayid Nasimi”, “Qissai Mashrab” kabi xalq qissalarida Xizr alayhissalom obrazining ifodalaniishi yoritilgan. Qissalarda qahramonlar hayotining og‘ir damlarida g‘ayb kishilar yordamga kelishi mohirona tasvirlanishiga e’tibor qaratilgan. Qur’oni Karim va boshqa diniy, ilmiy manbalar, xalq qarashlari asosida Xizr siymosi tavsif va talqin qilingan.

Аннотация

В данной статье освещается представление образа Хизра в народных повестях, таких как “Киссаи Ибрагим Адхам”, “Киссаи Саид Насими”, “Киссаи Машраб”. В повестях уделяется особое внимание на то, как мастерски изображается тяжёлые периоды жизни героев в моменты, когда приходят им на помощь духовные силы. Характер Хизра описывается и интерпретируется на основе Священного Корана и других религиозно-научных источников, народных взглядов.

Abstract

This article highlights the representation of the image of Khizr in such folk tales as “Kissai Ibrahim Adham”, “Kissai Said Nasimi”, “Kissai Mashrab”. Particular attention in the stories is paid to how skillfully are depicted the difficult periods in the lives of the heroes and the moments when spiritual forces come to their aid. The character of Khizr is described and interpreted based on the Holy Qur'an, other religious-scientific sources and folk views.

Kalit so‘zlar: Sharq adabiyoti, xalq qissalari, qahramonlar hayoti, g‘ayb kishisi, Xizr alayhissalom, g‘ayritabiyy voqeа-hodisalar.

Ключевые слова: Восточная литература, народные повести, жизнь героев, духовные силы, Хизр алейхиссалам, сверхъестественные события.

Key words: Eastern literature, folk stories, lives of heroes, spiritual forces, Khizr alaihis-salam, supernatural events.

KIRISH

Asrlar davomida aqli, tafakkuri jamiyatdan ilgarilab ketgan kishilarga nisbatan har doim ham bir xil munosabatda bo‘linmagan. Ularning xatti-harakati, so‘zları oddiy xalq tomonidan hurmat-ehtirom bilan kutib olingan bo‘lsa, davlat boshqaruvini o‘z qo‘llarida tutgan yuqori tabaqa vakillarining ijtimoiy-siyosiy qarashlariga mos kelmaganligi bois aksariyat hollarda ular quvg‘in ostiga olingan. Shuning uchun ko‘pchilik tasavvuf allomalari, so‘fiylarning hayoti fojiali tarzda yakun topgan. Shunisi xarakterlikni, ijtimoiy tur mush tarzi, maqsadi, bosib o‘tgan hayot yo‘li, tug‘ilishidan tortib o‘limigacha g‘ayritabiyy voqeа-hodisalarga boyligi va ularning bir-biriga o‘xshashligi bunday kishilar to‘g‘risida turli xil rivoyatlarning yuzaga kelishi uchun zamin hozirlagan. Xalq orasida avloddan avlodga, og‘izdan og‘izga ko‘chib yuruvchi bunday hikoyat va rivoyatlar asrlar osha yangi detallar bilan to‘ldirila bordi va puxtalanib, silliqlashib badiiylik tusini oldi. Bu esa Sharq adabiyotida, jumladan, o‘zbek mumtoz adabiyotida tarixiy shaxslar hayoti va faoliyatiga asoslangan badiiy-biografik qissalarning paydo bo‘lishiga olib keldi. “Qissai Ibrohim Adham”[1], “Qissai Sayid Nasimi”[2], “Qissai Mashrab”[3] ana shunday badiiy-biografik qissalar jumlasiga kiradi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODLAR

Qissalar sujetidagi badiiy lavhalar adabiyotshunoslik nuqtasi nazaridan xayoliy va hayotiy uydirmalardan tashkil topgan deyish mumkin. Uydirmalar o‘zining xarakter-xususiyati, vazifasi,

ADABIYOTSHUNOSLIK

sifatiga ko'ra rang-barang bo'lganidek, sujetlar kompleksi ham xilma-xildir. Xayoliy uydirmalar asosiga qurilgan sujetlarda sehr-jodu, mo'jizalar hamda karomatlar bilan bog'liq voqeа-hodisalar haqida hikoya qilinadi. Qissalarda quyidagi xayoliy uydirmalarni uchratamiz: "Qissai Sayid Nasimiy"da chiltonlar bilan Anolning uchrashuvi, Mansurning o'limidan so'ng to'fon bo'lishi va uni bostirishda "kul"ning ta'siri, sirli suvni ichgandan so'ng malikaning homilador bo'lib qolishi va Nasabning tug'ilishi, keyinchalik uning otashnafas ekanligi ayon bo'lishi, qatldan so'ng Nasimiy tana terisining tilga kirishi; "Qissai Ibrohim Adham"da suv podshohining Adham devonaga to'rt yuz gavhari shabchirog'ni hadya etishi, malikaning sag'ana ichidan tirilib chiqishi, qulonning inson tilida so'zlashi, daryo tubidan Ibrohim tashlagan ignalarni baliqlarning olib chiqib berishi, Ka'baning Robia' boshida charx urib uni ziyorat qilishi, g'oyibdan to'rt yuz dasturxonning paydo bo'lishi, shayton hamda Xizrnning qahramon bilan yuzma-yuz kelishi; "Qissai Mashrab"da Mashrabdagi g'ayritabiyy kashf-u karomatlar: qahramonning hali tug'ilmasdanoq onasiga murojaat etishi, xalvoning "bavli g'oyit" bo'lib ko'rinishi, chilimni tortganda, undagi bangning kulga aylanmay shu holatda qolishi, olovda yonmasligi, kiyim etagini surtganda onaizorning ko'zi ravshan tortishi, tovuqqa o'qning ta'sir etmasligi, ikki kaft orasidan farishtalarni ko'rsatishi hamda ikki kaft orasida Makkanning jilva berib turishi, Mashrabning o'limidan so'ng lahaddan chiqib, payg'ambar ravzasini ziyorat qilishi kabi mo'jizalar bilan bog'liq bo'lgan voqeа-hodisalar hikoya qilinadi.

Qissalarda qahramonalar hayoti bilan bog'liq voqealarni tasvirlashda g'ayb kishilar obrazlari ham ishtirok etadi. Tasavvufshunos olim Usmon Turar buni shunday izohlaydi: "Tasavvufiy tushunchada olamni boshqarish tan olingen valiyalar jamoasiga "rijolul g'ayb" deya nom berilgan. G'ayb kishilar, g'ayb eronlari, rijolulloh, mardoni xudo, mardoni g'aybi hukumati ma'naviya kabi ta'birlar ham shu ma'noda ishlataladi... Bu ma'naviy hukumatning tuzilishi va shaxsiyatlar haqida ba'zi juz'iy farqli ifodalar bo'lsa-da, umumiylar ma'noda bir xil. Chunonchi, bu hukumat tepasida "qutb'i turadi. Qutb – tegirmon toshining o'qi bo'lib, tegirmon toshi bu o'q atrofida aylanganidek, olamning mehvarini ham bu qutb tashkil etadi. Qutbga "g'avs", "g'av sul a'zam", "Qutbul aqtob" ham deyiladi. Qutbning o'ng va chapida ikki imom (imomayn) bo'lib, o'ngidagi malakut olamini, chapdag'i imom uning o'rniga o'tadi. Ulardan keyin "avtod" (ustunlar) deyilgan to'rt valiy o'rin olgan. Bularning har biri ma'lum bir tomonni boshqaradi. Ulardan keyin "abdol" yoki "axyor" deyilgan yetti valiy keladi. Bular esa yetti iqlimi boshqaradi" [4; 97-b].

Kishi og'ir ahvolga tushib, chorasisiz qolganda ham g'ayb kishisining yordamga kelishi to'g'risidagi lavha "Qissai Ibrohim Adham" qissasining so'ngida keltirilgan. Unda aytishicha, Zulfiya oyim eri va o'g'lini izlab cho'l-u biyobonda holdan toyib yig'lab yurganda unga Xizr alayhissalom duch keladi. Zulfiya oyim unga o'z dardini bayon qiladi. Voqealarning bundan keyingi rivoji Xizr alayhissalom ishtirokida kechadi: "Alqissa, bibi Zulfiya bu dardlarni aytkondin keyin Hazrati Xizr alayhissalom duo qildilar. Ersa g'oyibdin bir barq-u boddek bir teva paydo bo'ldi. Ersa andin keyin Xizr alayhissalom aydilar: Ey bolam, tevaga ming'il, o'zum olib borayin, dedilar. Andin bibi Zulfiya tevaga mindilar. Uch oyliq yo'lni Hazrati Xizr alayhissalom uch kun deganda yetkuzdilar. Emdu Hazrati sulton Ibrohimdin so'z eshitingkim, Qubays tog'ida bir g'or bor erdi. Hazrati sulton ul g'orda dorilfanodin dorilbaqog'a intiqol qilib erdilar. Chiltanlar hozir bo'lub sultonni yuvib, kafanga o'rab, tobutg'a solg'anda Madinai munavvaraning tamom buzrukleri hozir bo'lub, hazrati Ibrohimning janozalarini o'qumoq erdilarkim, shul zamon Hazrati Xizr alayhissalom yetib bordilar. Bibi Zulfiyani bir kanoraga qo'yup sultonni janozasini o'qumoqqa muqayyad bo'ldilar" [1, 78].

"Qissai Sayid Nasimiy"da ham g'ayb kishilar obrazi mavjud. Asar boshida Mansur Hallojning qatl vaqtida Zunnun Misriy siymosi kiritilib, u bir necha asr keyin yashagan Nasimiyning tug'ilishiga sabab bo'lgan vositachi rolini o'ynagan. Shuningdek, qissaga yana bir g'ayb kishisi obrazi kiritilgan. Asarda aytishicha, Nasimiy tahsil olayotgan maktab mullosi sirli tush ko'rib hayron bo'lib turganda:

"Banogoh keldi maktabga bir abdol,

Munga dediki ravshan aylayin hol," – deya Nasimiyning valiy zot ekanligidan xabar beradi. Uning tavsiyasiga ko'ra mullo talabalarni sinab ko'radi. Nasimiy bu imtihondan muvaffaqiyatli o'tadi. "Qissai Mashrab"da esa Mashrab toshkentlik Xoja Nuriddinning imyonini saqlab qolish uchun ketayotganda unga g'ayb kishilaridan Xizr alayhissalom yordam beradi: "Hazrati Xizr alayhissalom duo qildilar va aydilarki: "Ey bolam, borg'il, shaytonga zafar topg'aysan va muroding hosil bo'lg'ay, ollohu akbar", - deb yana bir necha nuqtayi ma'rifat va tariqatdin bayon

qilib, nasihatlar qildilar" [3, 71]. "Xo'jai Xizr kim bo'lgan?" – degan savolga javob izlaganimizda, manbalarda quyidagi ma'lumotlarga duch keldik. F.Nurmonov "Xizr obrazi genezisiga doir ayrim mulohazalar" maqolasida: "...Xizr obrazining genetik asoslari, ayniqsa, dehqonchilik madaniyati va hosildorlik kultlari bilan ham chambarchas bog'langan. O'rta Osiyo xalqlari dehqonchilik madaniyati an'analari, udum va marosimlarda bu obrazning muhim o'rin tutganligi ilmiy adabiyotlarda ham qayd qilingan. Dehqonlar orasida mavjud bo'lgan mifologik qarashlar bo'yicha, Xizr afsonaviy homiy, u hosilning mo'l bo'lishi va yilning barakali kelishini ta'minlar emish. Yashil to'n kiygan oq soqolli nuroni chol ko'rinishida namoyon bo'ladijan Xizr dalalarni kezib yurib, ekinlarga baraka ato qilarmish..."[7 , 51-54] kabi ma'lumotlarni keltirish bilan xalq orasida afsona va rivoyatlarga aylanib ketgan Xizr siymosi haqidagi xalq qarashlarini talqin etadi. Ya'ni, "...xalqimiz bobo dehqonni Xizr qiyofasida ham tasavvur qilgan..."lar va "Xizrnning yeri", "Xizr ko'rgan", "Xizr nazar solgan", "Xizrnning etagi tegib ketgan", "Xizr ko'rganning bolasi" kabi iboralar shu tasavvur hosilasi sifatida paydo bo'lgan.

Rahmatilloh qori Obidov bu savolga diniy nuqtayi nazardan yondashib, Qur'oni karim va boshqa diniy, ilmiy manbalar asosida quyidagilarni yozadi: "...Xizrnning shaxsiyati borasida turli fikrlar mavjud. Uni nabiy, valiy va podshoh deganlar ham bor. (Ba'zi olimlar Xizrni Fir'avnning, ba'zilari esa Zahhokning o'g'li deydi (Ibn Kasir, 297-b.) Qur'oni karimdag'i: "Rabbingning rahmati bo'l mish xazinalarini chiqarib olishlarini iroda qildi. Men bu ishlarni o'zimcha qilganim yo'q" (Qahf, 82) – degan oyati kalima Xizrnning payg'ambarligiga dalolat qiladi. Ibn Jarir at-Tabariyning yozishchicha, "ahli kitob"lar Xizr podshoh Afridun (Fors podshohlarining birinchisi, uning hukmdorligi 69 yil davom etgan) zamonida yashagan. Ularning taxminlaricha, Xizrnning asli nomi Baliyo ibn Malikon bo'lib, u Ollohnning marhamati bilan hayot bulog'didan ichgan va to hozirga qadar tirik ekan. Ammo uning hozirgacha hayot ekani asossizdir..." deya fikrining davomida quyidagi dalillarni keltiradilar: "...Agar Xizr alayhissalom Payg'ambarimizning (s.a.v.) yashagan davrda tirik bo'lganida bormi, nabiy yoki rasul bo'lsa, Ollohnning ahdiga muvofiq yordam berish, agar valiy bo'lsa, imon keltirish va bay'at qilish uchun Rasululloh (s.a.v.) huzuriga kelishi shart edi. Payg'ambarimizning islam bayrog'i ostida o'tgan Badrda, Uhudda yoki boshqa joylardagi janglarda musulmonlar g'alabasi uchun bor ilm-u hunari bilan yordam berishi kerak edi. Chunki Badr jangida Jabroil (a.s.) va boshqa ulug' farishtalar Payg'ambarimiz bilan bir safda jang qilgan. Binobarin, ilm-u laduniy va g'ayb sohibi bo'lgan Xizr hazratlari ham bu urushlarda ishtirok etgan bo'lardi. Xizrnning (a.s.) Payg'ambarimiz huzuriga kelib ketgani hatto uncha ishonchli bo'lmagan rivoyatlarda ham uchramaydi. Demak, Xizrnning hozirda hayot ekani borasidagi da'vebekor" [8, 103].

Ushbu fikr Mashrab bilan Xizrnning uchrashuvi haqidagi rivoyatda ham o'z aksini topgan: "Shoh Mashrab yo'lda ketayotib Xizrni uchratibdi va salom-alik qilib, yo'lida davom etibdi. Xizr Shoh Mashrabni to'xtatib "Meni tanimadingizmi?" deb so'rabdi. Shoh Mashrab debdi: "Tanidim, siz - Xizrsiz". Xizr ajablanibdi: "Unda mendan so'raydigan biror tilagingiz yo'qmi? Shoh Mashrab unga javoban: "Ollo bilan bizning o'tamizda dallasining hojati yo'ql"- debdi va yo'liga ravona bo'libdi" [3, 104].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yuqorida keltirilgan tasvirlarda Olloh sevgan bandalarga og'ir damlarda g'ayb kishilari yordamga kelishi mohirona o'z ifodasini topgan.

Qissalarda folklorga xos belgilardan yana biri ularda shayton mifologik obrazining mavjudligidir. "Qissai Sayid Nasimiy"da bu obraz uchramaydi. "Qissai Ibrohim Adham"da esa Ibrohim Adhamning o'z maslagiga sodiq ekanligini ko'rsatishda bu obrazdan foydalanilgan. Qissada aytishchicha, sulton Ibrohim Ka'ba ziyoratiga borayotganda shayton odam qiyofasiga kirib, uni yo'ldan urmoqchi bo'ladi. Shaytonning Ibrohim ko'ngliga vasvasa solishga urinishi bekorga ketadi. "Alqissa, sulton Ibrohim aydilar: Ey mal'un, bilgil va ogoh bo'lgil, man to'rt nimarsani o'zunga nazr qilibdurman: avvali – xalq tevaga minib borsalar, man piyoda borurman; ikkinchi – xalq yo'lg'a zodi rohila olib borsalar, man beto'sha borurman; uchinchi – odamlar hamroh birla borsalar, man tanho borurman; to'rtinchi – har bir qadamda ikki rak'at namozni ixtiyor qildim. Bu to'rt nimarsani o'zunga nazr qildim, – dedilar. Ersa Shaytoni lain bu xislatsi ko'rib, navmid bo'lib qaytdi" [1, 39]. "Qissai Mashrab"da esa Mashrab jon berolmay yotgan Xoja Nuriddinning imonini o'g'irlamoqchi bo'lgan shayton bilan jihad qiladi. Shayton toqat qilolmay qochib ketadi va Xoja Nuriddinning imoni saqlab qolinadi. Shuningdek, qissada bayon qilinishchicha, Mashrab sayohatda

ADABIYOTSHUNOSLIK

yo'lovchi qalandarga duch keladi va u bilan tanishadi. Shunda uning ismidan shaytonga xos belgini aniqlaydi: "Registonda bir qalandar shoh Mashrabni tutub so'radiki:"Ey qalandar, otingiz nimadur?" Shoh Mashrab aydilarki: "Mani otim Mashrabdur". Qalandar aydiki: "Ma'nisi nimadur?" Shoh Mashrab aydilarki: "Har kim manga rafiq bo'lsa, man anga rafoqatlik qilurman. Har qozonga tushsam qaynarman, aning uchun otimni Mashrab qo'ydum". Andin so'radilarki: "Saning oting nimadur?" Qalandar aydi: "Mani otim Ponsadmandur". Shoh Mashrab aydilar: "Shayton bir marotaba manlik qilib bo'ynig'a tavqi la'nat tushti, san besh yuz manni ko'tarib yurursan. Munosib shulki sandin qochmoq kerak" [3, 138]. Bu lavha Makkaga qilgan safarida ham aks etib, unda Ponsad haqida she'riy tarzda fors-tojikcha izoh berilgan:

"Guft Shayton yak mani aftod tavqi la'natash,

Voy bar on kaski, boshad nomi u Ponsadmani" [3, 117].

Fors-tojik tilida "Ponsadman" so'zi "besh yuz men" ma'noni bildirib, diniy rivoyatlarga ko'ra Shayton Olloh amriga bo'y sunmay manmanlik qilgani uchun umrbod tavqi la'natga uchragan. Shuning uchun Mashrab Ponsadmanni ismidan fosh qilib, undan uzoqroq bo'lisl kerakligini uqtiradi.

XULOSA

Xalq e'tiqodini rag'batlantirish uchun karomat va valiylik bilan bog'liq bo'lgan yuqoridagi zikr etilgan va to'qib chiqarilgan badiiy lavhalar xalq qissalarining tarixiy ahamiyatini kamaytirgan. Xayoliy va hayotiy uydirmalar vositasida ta'riflanayotgan obrazlar xalq tasavvurida ilohiy kuch-qudratga ega qahramonlarga aylangan. Kishilar ma'lum maqsad uchun yo'naltira olmayotgan o'zidagi jasoratni qahramonlarda ko'radi va o'z navbatida ularning xotirasini, g'oyalarini diliqa tugadi. Qahramonlar kitobxon ko'z o'ngida individual, betakror siymo sifatida gavdalananadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qissai Ibrohim Adham. (Tuzuvchi va so'z boshi Q. Tohirov). Samarcand: Zarafshon, 1993. -108 b.
2. Sayid Nasimi. Turkmaniston FA Maxtumquli nomidagi Til va adabiyot institutining qo'lyozmalar fondida inv № 487 raqami ostida saqlanayotgan qo'lyozma 583 sahifadan iborat.
3. Qissai Mashrab. (Xalq kitoblari turkumidan). Toshkent: Yozuvchi. 1992. -176 b.
4. Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. Toshkent: Istiqlol, 1999. -34, 97-98 b.
5. Adam Mes. Musulmanskiy renessans. M., 1973. 245-247s.
6. Hamroeva D. Manoqib va tarixiy haqiqat.// O'zbek tili va adabiyoti. 2003. 4-son, 46-49b.
7. Nurmonov F. Xizr genezisiga doir ayrim mulohazalar. O'zbek tili va adabiyoti. 2004. 2-son, 51-54 b.
8. Obidov Rahmatulloh qori. Xo'jai Xizr kim bo'lgan? Tafakkur, 2005. 1-son, 103-107 b.